

TA'LIM TIZIMIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY QOBILYATI VA AMALIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi

PhD. Shobduraximova Umriniso

Annotatsiya. Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bir necha xil usullari, bularning foydali taraflari muhokama qilinadi. Hozirgi kunda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatiga qarab turli xil metodlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, hozirgi kunda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajalariga qo'yilayotgan jiddiy talablar bu borada zaruriy nazariy, amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

Kalit so'zlar: ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, ijodiy izlanish, ijodiy tasavvur, ijodiy faoliyat, pedagogik amaliyot, pedagogik jarayon, innovatsion texnologiya.

Аннотация. В данной статье рассмотрено несколько различных способов развития творческих способностей дошкольников, о пользе которых и пойдет речь. В настоящее время в дошкольных образовательных учреждениях применяются разные методики в зависимости от возрастных особенностей воспитанников. Кроме того, современные серьезные требования к уровню подготовки детей к школе требуют разработки необходимых теоретических, практических мер в этом направлении.

Ключевые слова: творческие способности, креативность, творческие исследования, творческое воображение, творческая деятельность, педагогическая практика, педагогический процесс, инновационная технология.

Annotation. This article discusses several different ways to develop creative abilities of preschoolers, the benefits of which will be discussed. Currently, different methods are used in preschool education institutions depending on the age characteristics of pupils. In addition, the current serious requirements for the level of preparation of children for school require the development of the necessary theoretical, practical measures in this regard.

Key words: creative ability, creativity, creative research, creative imagination, creative activity, pedagogical practice, pedagogical process, innovative technology.

Kirish. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi keng qo'llaniladigan pedagogik amaliyotlar va ilmiy izlanishlar asosida amalga oshirilmoqda. Ijodiy rivojlanish uchun muhim omillar orasida bolalarga ijodiy faoliyatni o'rgatish, ularning tasavvurlarini kengaytirish, san'at, musiqa va o'yinlarning rolini yuqori baholash kabilar mavjud. Bu fikrlar umumiy ravishda bolalar ta'limining sifatini oshirish va ularning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. MDH mamlakatlarida maktabgacha ta'limdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar va yondashuvlar turlicha bo'lsa-da, barcha mamlakatlarda bir xil fikrni ifodalashadi: bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yinlar, san'at, musiqa va drama kabi sohalar katta ahamiyatga ega. Pedagoglar bolalarning tasavvurlarini kengaytirish, ularni ijodiy fikrlashga undash va o'zini ifodalashda erkinlik berish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishga katta ahamiyat beradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi bo'yicha MDH davlatlaridagi olimlar turli yondashuvlar va fikrlar bildirganlar. Rossiyada maktabgacha ta'lim va bolalar ijodiylikini rivojlantirish bo'yicha ko'plab muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Rossiyalik olimlar bolalarning ijodiy rivojlanishiga katta e'tibor qaratadilar va bu borada o'yinlar, tasavvur, san'at, musiqa kabi sohalarining ahamiyatini ta'kidlaydilar. Qozog'istonda bolalarning ijodiy rivojlanishini o'yinlar va san'at faoliyatlari orqali amalga oshirishga katta ahamiyat beriladi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda ta'lim tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohatlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar nihoyatda kengayib bugungi kunda davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Jumladan uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasining ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir. Maktabgacha ta'limning bosh maqsadi bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, ularni sog'lom har tomonlama rivojlangan mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan barkamol shaxsni voyaga yetkazishdan iboratdir. Shu boisdan ham maktabgacha ta'lim bola hayotining muhim davrlaridan biri hisoblanadi. Ayni davrdagi maktabgacha ta'lim muassasalari avvalgisidan butkul farq qiladi [1. –B.76-77].

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaratilgan shart-sharoitlarni, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan mashg'ulotlarni, bolajonlar uchun kerakli o'quv qurollari bilan davlatimiz tomonidan ta'minlab berilishi odamni quvontiradi. Bundan asosiy maqsad bolalarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalinishiga, kelajakda vatanimiz ravnaqi taraqqiyotiga hissa qo'shadigan inson bo'lib voyaga yetishiga ko'maklashishdir. Maktabgacha bo'lgan davr bolada boshlang'ich ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng yaxshi, eng qulay davr hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyachilarimizning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tajribalarda ko'rsatilishicha, bolalarning aynan ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha ta'lim yosh davriga to'g'ri kelishi o'z isbotlangan. Hozirgi zamon standartlarini amaliyotda tadbiq etish boladan nafaqat yuqori va doimiy izlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. Bolaning kreativligi o'z tajribalari va ixtirolarini qayta ko'rib chiqishi va yanada yaxshilash, natijani anglash hamda ijodiy foydalana bilish, yangiliklar yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bolaning kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanib takomillashib boradi. Har bir bolaning o'zini-o'zi rivojlantirishi va o'zini-o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga ega ekanligi bilan bog'liq [2. –B.559-560].

Bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish usullari haqida gaplashadigan bo'lsak, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijodiy qobiliyatni rivojlantirish usullari juda

muhimdir, chunki bu davrda bolalar o'zlarining ijodiy potentsialini ochib, tasavvur va yaratuvchanlikni rivojlantirishadi. Bu yoshda bolalar uchun ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda bir nechta samarali usullar mavjud: rasm chizish va bo'yash: bolalar uchun rang-barang va ijodiy vositalar bilan ishlash ularning dunyoqarashini va tasavvurini kengaytiradi. Ular turli san'at asarlarini yaratish orqali o'z hissiyotlarini ifodalaydilar.

Tabiatni kuzatish: Bolalar tabiatda o'yinlar o'ynab, o'simliklar, hayvonlar va atrof-muhitni kuzatish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirishadi. Bundan tashqari, Qum, tosh, barg, g'isht kabi tabiiy materiallardan turli shakllar yasash bolalar uchun ijodiy imkoniyatlar yaratadi.

Har ikkala usulda to'xtalib o'tadigan bo'lsak, rasmlar chizish va bo'yash — maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning samarali usullaridan biridir. Ushbu faoliyat nafaqat bolalarning vizual tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi, balki ularning motorik qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Chizish va bo'yash orqali bolalar o'z fikrlarini, hissiyotlarini va tasavvurlarini ifodalaydi. Bu faoliyat orqali bolalar o'zlarining dunyoqarashini va ichki hissiyotlarini tashqi dunyoga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Rasmlar chizish va bo'yash bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda juda muhim rol o'ynaydi, chunki bu faoliyat ularni tasavvur qilishga, ranglarni anglashga, shakllarni aniqlashga va o'z fikrlarini ifoda etishga o'rgatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tabiat bilan ishlash, nafaqat tabiiy muhitni o'rganishga yordam beradi, balki ularning ijodiy va intellektual rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Tabiat bilan ishlash usullari bolalarning o'zaro aloqalarini, sezgirliklarini, tasavvurlarini va muhitni tushunish qobiliyatlarini kengaytiradi. Bolalar bilan sayrlar yoki tabiatga ekskursiyalar uyushtirish, ularni atrof-muhit bilan tanishtirishning birinchi qadamidir. Ular o'rmon, bog', park yoki boshqa tabiiy hududlarga olib borish, ularga o'simliklar, hayvonlar, qushlar va boshqa tabiiy elementlarni kuzatishga imkon beradi. Sayohatlarda bolalarga o'simliklar, hayvonlar yoki havo holatini kuzatish uchun savollar berish (masalan, "Qanday o'simliklarni ko'rding?", "Qaysi qushning ovozi eshiting?") bolalarning diqqatini to'plash va tabiiy dunyo bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning shaxsiy, aqliy va hissiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Rasm chizish, bo'yash, tabiat bilan ishlash, musiqa va o'yinlar kabi faoliyatlar bolalarga tasavvur qilish, o'z fikrlarini ifodalash va yangi g'oyalarni yaratishda yordam beradi. Bunday faoliyatlar nafaqat ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, balki motorika, ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni ham mustahkamlaydi. Tarbiyachilar va ota-onalar bolalarga erkinlik, qo'llab-quvvatlash va yangi tajribalar taklif qilish orqali ularning ijodiy yondashuvlarini kengaytirishlari kerak. Shu tarzda, bolalar kelajakda muvaffaqiyatli va yaratgan shaxslar bo'lib yetishadilar.

Foydalangan adabiyotlar

1. Matluba T. Rajabova. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlari va uni samarali rivojlantirish omillari // Oriental Journal of Education. 2022. Volume 2. – Issue 01. – P.76-81. URL: <https://doi.org/10.37547/supsci-oje-02-01-12>
2. Safarova M.N., Mirzayeva D.A. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'limiy muhitni tashkil etishning o'ziga xosligi // "Science and Education" Scientific Journal. 2024. Volume 5. – Issue 02. – P.559-564.